

ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI O`ZBEKISTONDA KREDITLAR BO`YICHA FOIZ STAVKALARINI PASAYTIRISH IMKONIYATLARI

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti
Namangan filiali 4-kurs talabasi
Oribjonova Gavharoy Ahliddin Qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`zbekistonda kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va ushbu muammoni yumshatishda islom banklarini rivojlantirishning ahamiyati yoritilib berilgan. Islom banklari foizsiz moliyalashtirish, sheriklik tamoyillari asosida risklarni baham ko`rish va iqtisodiy barqarorlikni ta`minlash orqali moliya bozorida muqobil yechim sifatida qaraladi. Islomiy moliya vositalari-murobaha, mushoraka kabi mexanizmlarning afzalliklari va ularning kredit bozoriga ijobiy tahlil qilingan. Natijada, islom banklarini rivojlantirish O`zbekistonda kredit foizlarini pasaytirish hamda barqaror moliyaviy tizimni shakllantirishga xizmat qilish mumkinligi asoslab berilan.

Kalit so`zlar: Islom banki, foiz stavkasi, foizsiz moliya, sheriklik, murobaha, mushoraka.

ВОЗМОЖНОСТИ СНИЖЕНИЯ ПРОЦЕНТНЫХ СТАВОК ПО КРЕДИТАМ В УЗБЕКИСТАНЕ ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКИХ БАНКОВ

Аннотация : В данной статье освещается высокая процентная ставка по кредитам в Узбекистане и значение развития исламских банков в смягчении данной проблемы. Исламские банки рассматриваются как альтернативное решение на финансовом рынке за счёт беспроцентного финансирования, принципов партнёрства, разделения рисков и обеспечения экономической стабильности. Проанализированы преимущества исламских финансовых инструментов, таких как мурбаха и мушарака, а также их положительное влияние на кредитный рынок. В результате обосновано, что развитие исламских банков может способствовать снижению процентных ставок по кредитам и формированию устойчивой финансовой системы в Узбекистане.

Ключевые слова: Исламский банкинг, процентная ставка, финансы, партнерство, мурбаха, мушарака.

OPPORTUNITIES TO REDUCE INTEREST RATES ON LOANS IN UZBEKISTAN THROUGH THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC BANKS

Annotation: This article discusses the high loan interest rates in Uzbekistan and the importance of developing Islamic banks to mitigate this issue. Islamic banks are considered an alternative solution in the financial market through interest-free financing, partnership principles, risk-sharing, and ensuring economic stability. The advantages of Islamic financial instruments such as Murabaha and Musharakah and their positive impact on the credit market are analyzed. As a result, it is substantiated that the development of Islamic banking can help reduce loan interest rates in Uzbekistan and contribute to the formation of a stable financial system.

Keywords: Islamic bank, interest rate, finance, partnership, Murabaha, Musharakah.

Kirish

Islom banki, islomiy moliya shariatga muvofiq moliya –bu shariat va uni islom iqtisodni rivojlantirish orqali amalda qo'llashga mos keladigon bank yoki moliyalashtirish tashkiloti.

Islomiy bank yoki moliyaning ba'zi usullari orasida Mudoraba (foydani taqsimlash va zarar ko'rish), Vadiya (xavfni saqlash), Musharaka (qo'shma korxona), Murobaha (narx-plyus) va Ijara (lizing) kiradi.

Shariat barcha qarzlar bo'yicha to'lanadigon foiz sifatida ta'riflangan riboni yoki sudxo'rlikni taqiqlaydi. Bu taqiqlar islomga zid odatlarning oldini olish uchun musulmon mamlakatlari yoki jamoalarida tarixan turli darajada qo'llangan. Bu tamoyillarni musulmon jamiyati ichidagi xususiy yoki yarim xususiy tijorat muassasalariga tatbiq etish uchun bir qancha islom banklari tashkil etilgan. Ularning soni va hajmi oshib bordi, shuning uchun 2009-yilga kelib dunyo bo'ylab islom tamoyillariga mos keladigon 300 dan ortiq bank va 250 ta investitsiya fondalri 2014-yilga kelib 2 trillion dollar atrofida bo'ldi. Shariatga mos moliyaviy insitutlar jami jahon aktivlarining taxminan 1 %ni tashkil etadi. Ko'rfaz hamkorlik kengashi

(GCC) mamlakatlari, Pokiston, Eron va Malayziyada jamlangan. Islom banki hali ham musulmonlar bank aktivlarining atigi bir qismini tashkil qiladi tashkil topkanidan beri u butun bank aktivlariga qaraganda tezroq o'sib bormoqda va bundan keyn ham shunday davom etilishi kutilmoqda.

Islom banklarida murobaha.

1. Murobaha bugungi kunda islom moliya muassasallari tomonidan tadbirkorlik tijorat loyihalarini moliyalashtirish uchun keng qo'llaniladi. Vaxolanki murobaha dastlab islom fikrida faqat savdo shartnomasi turi sifatida malum bo'lgan va moliyalashtirishga umuman aloqasi bo'lmagan.

Murobaha bu maxsus savdo-sotiq turi bo'lib, bunda sotuvchi maxsulotning xarid narxini, qilingan xarajatlarni va uning ustiga o'zi qo'ygan ustamani xaridorga

ma'lum qiladi. Agar sotuvchi maxsulotning tannarxini va ustamani ma'lum qilmasa, unda bu murobaha emas, balki islom moliyasida “musavama” deb ataluvchi oddiy savdo bitimi bo'ladi. Sotuvchi maxsulotni xaridorga yetkazishi bilan bog'liq barcha xarajatlar maxsulotning tannarxiga qo'shiladi va xosil bo'lgan narxga ustama belgilanadi.

Ammo sotuvchining maxsulotni xaridorga yetkazishiga bevosita aloqasi bo'lmagan joriy xarajatlari maxsulotga narx belgilashda inobatga olinmaydi. Tomonlar maxsulot narxini birdaniga to'lanishiga xam, keynroq (yani ma'lum bir muddat ichida) to'lanishiga xam kelishishlari mumkun. Demak murobahani faqatgina to'lov muddati uzaytirilgan savdo bitimi deb atash to'g'ri emas. Islom xuquqidan unchalik xabari bo'lmagan, faqatgina zamonaviy islom moliya muassasalari faoliyati bilan tanish bo'lgan odamlargina shunday deb xisoblashadi.

Murobaha shartnomasini an'anaviy bankdan farqi 2020-yilda “Trastbank” Xalqaro Islom savdo- moliya korporatsiyasi (I TFC) savdoni rivojlantirishga mablag'larni jalb qilish bo'yicha 8 mln dollarlik moliyalashtirish liniyasiga kelishuv imzolagan. Tadbirkorlar uchun ushbu mablag'lar xisobidan kredit liniyalari taklifi berilyapdi “Trastbank” shariat qoidalari asosida Murobaha shartnomasini tuzish orqali 8 foizlik ustama bilan 1 yil muddatgacha kredit taklif qiladi. 2023-yil 10-yanvar kuni “Trastbank” XAB shuba lizing kompaniyasi – “Trast Muamalat” MCHJ ochildi. “Trast Muamalat” MCHJ amaldagi qonunchilik doirasida samarali “Murobaha (nasiya savdo)” va “Ijara (lizing)” operatsiyalarini amalga oshiradi. Shuningdek, xalqaro islom moliyasi institutlari bilan hamkorlikdi kengaytirishdan iborat.

Murobaha quydagi xususiyatlarga:

Ochiqlik: Sotuvchi tovarning aniq xarid narxini va o'zining kelishilgan foyda (ustama) mijozga to'liq oshkor qilish shart.

Muddatli to'lov: Bu savdo bitimi odatda tovarlarni muddatli to'lov evaziga sotish shaklida bo'lib, to'lov muddatini mijoz bilan belgilanadi.

Foizsz moliyalashtirish: Islom qonunchiligida foiz (ribo) olish taqiqlanganligi sababli, murobaha foizsz, ya'ni halol moliyalashtirish sifatida ishlatiladi.

Tijorat bitimi: Bu tovarlarni xarid qilish va keyinchalik ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan bitim.

Mijoz murobaha shartnomasi asosida xarid qilishni xoxlasa, bank mahsulotni 100 so'mga sotib olib, unga 10 so'm ustama qo'shib mijozga 110 so'mga muddatli to'lov asosida sotadi.

Islom banklarida Mushoraka.

Mufti Muxammad Taqi Usmoniyning tadqiqotlariga ko'ra (1998) Mushoraka atamasi arab tilidan olingan bo'lib, “bo'lishish”, “sherik bo'lish” kabi ma'nolarni anglatadi. Biznes va savdoga oid xollarda esa, mushoraka ikki yoki undan ortiq

tamonlar o`rtasidagi hamkorlikdagi tadbirkorlik / mulkiy sherikchilikka aytiladi. Mushoraka bitimi ingliz qonunchiligidagi sheriklik shartnomasiga o`xshaydi, unga ko`ra ikki yoki undan ortiq sheriklar o`z moddiy (moliyaviy mablag`lar, bino, uskuna, xom ashyo...vhkz.) va ma`naviy (masalan intellektual mulk) imkoniytlarini birlashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishadi.

Mushoraka – bu foyda va zararni o`rtada taqsimlashga asoslangan islomiy moliyalashtirish shakli, bu yerda bir necha tomon (masalan, mikromoliya tashkiloti va mijoz) mablag` kiritib, birgalikda biznes yuritadi va kelishilgan holda moliyaviy natijalarni bo`lishadi.

Asosiy xususiyatlari:

Birgalikdagi sarmoya: Ishtirokchilar (shirkat egalari) biznesga o`z sarmoyalarini kiritadilar.

Foyda va zararni taqsimlash: Tomonlar kelishilgan foiz stavkalari asosida foydani bo`lishadilar, shuningdek, zarar yuz bersa, uni ham taqsimlashadi.

Boshqaruv: Shirkat egalari biznesni boshqarishda ishtirok etishlari mumkun.

Islomiy tamoyillari: Mushoraka islomiy tamoyillarga asoslangan, shunga ko`ra, foiz (ribo) olib bo`lmaydi va barcha moliyaviy operatsiyalar shariatga mos kelishi kerak.

Mushoraka islomiy banklarda va mikromoliya tashkilotlarida turli biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun keng qo`llaniladi.

Mushoraka shartnomasida foydani xisoblash

Agar sheriklardan birortasiga qat`iy belgilangan to`lov qilinishi yoki biznesga kiritgan sarmoyasi asosidagi to`lov amalga oshirilishi ko`zda tutilgan bo`lsa, u xolda, Mushoraka shartnomasi muddati yakuniga yetganda ushbu amalga oshirilgan to`lovlar shu sherikning foydadagi ulushidan ushlab qolishi yoki foyda ko`rilmasa, u xolda amalga oshirilgan to`lovlar shu sherik tomonidan qoplanishi xaqidagi band shartnomaga kiritilishi lozim.

Tomonlarning foydadagi ulushi shartnoma tuzish paytida kelishilgan bo`lishi kerak, aks xolda shartnoma shar`iy jixatdan kuchga ega bo`lmaydi. Xar bir sherik uchun foyda ulushi, olinga xaqiqiy foydaga mos ravishda taqsimlanadi, uning biznesga tikkan sarmoyasiga mutanosib ravishda emas ya`ni foyda ko`rilsa unga foydadan avvaldan kelishilgan miqdorda ulush ajratiladi, agar foyda ko`rilmasa ulush ajratilmaydi. Shuningdek, xar qanday sherikka qat`iy miqdordagi to`lovlar qilinishiga kelishish yoki uning biznesga kiritgan sarmoyasi asosida foyda miqdorini oldindan belgilash mumkun emas.

Davlat tomonidan islom moliyasini O`zbekistonda tadbqiq qilish borasida ish olib borilayotganligidan xabardorlik darajasi.

Davlat tomonidan islom moliyasini O`zbekistonda tatbiq qilish borasida ish olib borilayotganligidan xabardormisiz?	Biznes		Banklar		Jismoniy shaxslar	
	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi
Yo`q	1642	87%	12	46.15%	2909	83.80%
Xa	241	13%	14	53.85%	562	16.20%
Jami	1873	100%	26	100%	3469	100.00%

2020 –yilgi holatiga ko`ra.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, islom banki hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiy liberallashtirish g`oyasi ilgari surilgan ekan bu jarayonda banklarning nufuzini kuchaytirish ham muhim o`rin tutadi. Buning uchun esa davlatimizda islom bank tizimini joriy qilish ancha samarali natija berishi mumkin. Chunki islom banklari moliyaviy jihatdan yaxshi ko`rsatkichlarga ega hamda ularning daromadi ham muntazam ortib bormoqda. Chunki islom banklarida sudxo`rlik yo`qligi tufayli yurtimizda ularga yetarli darajada talab ortadi. Bu uchun esa islom bank tizimining qonunchilikda asos yaratish, xalqaro islom moliya tashkilotlari bilan hamkorlikdi yanada kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://islommoliyasi.uz>
2. <https://uz Wikipedia.org>
3. Dars slaytidan
4. Islom moliya maxsulotlarini O`zbekistonda tatbiq qilish va qo`llash yuzasidan o`tkazilgan tadqiqot natijalari bo`yicha taxliliy xisobot. Jaxongir Imamnazarov 2020 yilgi holati.